

**“TASDIQLAYMAN”**  
**Toshkent viloyati hokimi o‘rinbosari,**  
**Oila va xotin-qizlar boshqarmasi**  
**boshlig‘i**



Normirzayeva

“ ” \_\_\_\_\_ 2026 yil.

**Toshkent viloyati Oila va xotin-qizlar boshqarmasining**  
**4-son bayoni**

2026-yil 05-iyun

Nurafshon shahar

Raislik qiluvchi:

Toshkent viloyati hokimi o‘rinbosari - Oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig‘i N.A.Normirzayeva

Qatnashdilar:

O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi rais maslahatchisi N.Mavlanova, Komplayens nazorat bo‘yicha bosh mutaxassis Sh.Berdiyev, Toshkent viloyati tuman (shahar) Oila va xotin-qizlar bo‘limlari boshliqlari.

**KUN TARTIBI:**

1. Raqobat qonunchiligi va monopoliyaga qarshi komplaens nazorat.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 12-maydagi 239-sonli “Xotin-qizlar muammolarini o‘rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori

---

*(Normirzayeva, Mavlanova, Bediyev, Sharofiddinov, ..., Normirzayeva)*

Yig‘ilishga raislik qiluvchi Toshkent viloyati hokimi o‘rinbosari – oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig‘i N.A.Normirzayeva so‘zga chiqib kun tartibidagi masalalar yuzasidan Raqobat xavfini ish jarayonida ko‘ra olish, Qonunbuzarlik sodir bo‘lishidan oldin profilaktika qilish, Qizil bayroqlar va komplaens harakatlarini amalda qo‘llash, Davlat xaridlari, shartnoma, ruxsatnoma va savdolarida xavfni baholash kabi masalalarda aytib o‘tdi. Shuningdek, raqobat muhitiga salbiy ta’sir etuvchi xavflarni barvaqt aniqlash va ularning oldini olish zarurligini ta’kidladi. Majlis davomida quyidagi asosiy yo‘nalishlar atroflicha muhokama qilindi: Raqobat xavfini ish jarayonida ko‘ra olish: Ish yuritishning har bir bosqichi raqobat huquqi nuqtai nazaridan doimiy tahlil qilinadi. Bozordagi ustun mavqeni suiiste‘mol qilish va raqobatchilarga nisbatan kamsituvchi shartlar qo‘llanilish xavfi oldindan baholanadi. Biznes-qarorlar qabul qilishda komplaens xizmatining xulosasini olish tizimi yo‘lga qo‘yiladi. Qonunbuzarlik sodir bo‘lishidan oldin profilaktika qilish: Xodimlarning huquqiy

madaniyatini oshirish uchun muntazam o'quv treninglari tashkil etiladi. Tashkilotning ichki me'yoriy hujjatlari monopoliyaga qarshi qonunchilikka muvofiqlashtiriladi. Qonunbuzarliklarni erta aniqlash maqsadida ichki audit tizimi kuchaytiriladi. "Qizil bayroqlar" va komplaens harakatlarini amalda qo'llash: Raqobatchilar bilan narxlarni kelishish yoki bozorni bo'lishib olish belgilari, shuningdek, tanlovlarda bir xil IP-manzillardan ariza berilishi shubhali holatlar ("qizil bayroqlar") deb yuritiladi. Xavf aniqlangan zahoti jarayon to'xtatiladi va ichki surishtiruv boshlanadi. Davlat xaridlari, shartnoma va savdolarda xavfni baholash: Barcha shartnomalar loyihalarida raqobatni cheklovchi bandlar mavjudligi tekshiriladi. Tanlov va savdolarda til biriktirish (kartel) xavfi baholanadi. Ruxsatnomalar berish va olish jarayonlarida shaffoflik hamda kontragentlar uchun teng imkoniyatlar ta'minlanadi.

Shundan so'ng, Oila va xotin-qizlar qo'mitasining mas'ul xodimi Sh. Berdiyev kun tartibidagi masala yuzasidan O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 3-iyuldagi O'RQ-850-sonli «Raqobat to'g'risida»gi Qonuni mamlakat iqtisodiyotida sog'lom raqobat muhitini yaratish, monopoliyalarni tartibga solish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan eng muhim fundamental hujjatlardan biriligini aytib o'tdi. Qonunning bosh maqsadi — bozorda teng imkoniyatlar yaratish, sun'iy monopoliyalarga chek qo'yish va raqobatni cheklaydigan kelishuvlarning oldini olishdir. Ushbu qonunning eng muhim va asosiy mazmuni quyidagi yo'nalishlardan iborat: Mustaqil vakolatli organ belgilanishi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi raqobat sohasidagi yagona vakolatli davlat organi (monopoliyaga qarshi organ) etib belgilandi. Qo'mita o'z faoliyatini boshqa davlat organlaridan mustaqil ravishda amalga oshiradi hamda Prezident va Senatga hisobdordir. Monopoliyaga qarshi komplaens tizimining joriy etilishi Qonunda ilk bor monopoliyaga qarshi komplaens tushunchasi va uni majburiy joriy etish talablari mustahkamlandi. Bu tizim davlat boshqaruvi organlari, mahalliy hokimliklar va bozorda ustun mavqega ega bo'lgan yirik kompaniyalarda raqobat qonunchiligi buzilishi xavflarini oldindan aniqlash va profilaktika qilishga xizmat qiladi. Shuningdek, Qonun va sohaga aloqador qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyatini yetkazish yuzasidan huquqiy tushuntirishlar berib o'tdi.

Shuningdek kun tartibidagi ikkinchi masala yuzasidan viloyati hokimi o'rinbosari - oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig'i N.A. Normirzayeva O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 12-maydagi 239-sonli "Xotin-qizlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror mazmun mohiyatini tushuntirib, xotin-qizlarni "Ayollar daftari"ga kirish jarayonlarida, ularga ko'rsatiladigan yordamlarda holis bo'lishlikka, individual dasturlarni o'z vaqtida va to'g'ri to'ldirilishi, xamkor tashkilotlar bilan tizimli ishlarni tashkil qilish to'g'risida gapirib o'tdi.

Yig'ilish davomida bildirilgan fikr va mulohazalardan kelib chiqib yig'ilish

## Qaror qiladi:

1. Yig'ilish kun tartibida bildirilgan fikr va mulohazalar ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Boshqarma hamda bo'limlarda Monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish va xavflarni baholash bo'yicha barcha xodimlarning shaxsiy mas'ulligi oshirilsin.

3. Davlat xaridlari va shartnomalarni imzolashdan oldin komplaens nazoratidan o'tkazish mas'uliyati yuristkonsult zimmasiga yuklatilsin.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 12-maydagi 239-sonli "Xotin-qizlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosi uchun barcha tuman(shahar) hokim o'rinbosarlar – oila va xotin-qizlar bo'limlari boshliqlari shaxsan javobgar etib belgilansin.

5. Mazkur bayon ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Bayon tuzuvchi



J. Sharofiddinov

